



O'ZBEKİSTONDA AHOLINI TAKROR BARPO ETİSHNING TABİİY HARAKATI KO'RSATKICHLARINI STATİSTİK BAHOLASH

Jamaldinova Asalxon Saliyevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0007-5326-3073
asalzamaldinova@gmail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda aholini takror barpo etishning tabiiy harakatini o'rGANISH hamda ko'rsatkichlarini tahlil qilishga ois statistik ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Shuningdek, aholini takror barpo qilishda aholi dinamikasi, tug'ilish va o'lim, ayollar va erkaklar soni, mehnatga layoqatlilar qamrovi koeffisiент kabi omillar asosida o'rganilgan tadqiqot natijalari xususida fikr-mulohazalar bildirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: demografiya, aholi, takror barpo bo'lish, tabiiy o'sish, tug'ilish, vafot etish, statistika.

СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЕСТЕСТВЕННОГО ДВИЖЕНИЯ ВОССТАНОВЛЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Жамалдинова Асалхон Салиевна
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье представлены статистические данные по изучению естественного процесса воспроизведения населения в Узбекистане и анализу его показателей. Также были высказаны мнения о результатах исследования на основе таких факторов, как динамика численности населения, рождаемость и смертность, численность женщин и мужчин, коэффициент охвата рабочей силой при восстановлении населения.

Ключевые слова: демография, население, воспроизведение, естественный прирост, рождаемость, смертность, статистика.

STATISTICAL ASSESSMENT OF INDICATORS OF THE NATURAL MOVEMENT OF POPULATION RECOVERY IN UZBEKISTAN

Jamaldinova Asalkhon Saliyevna
Tashkent State University of Economics

Abstract. In this article, statistical data on the study of the natural process of population regeneration in Uzbekistan and the analysis of its indicators are presented. Also, opinions were expressed about the results of the study based on factors such as population dynamics, birth and death, the number of women and men, and the labor force coverage coefficient during population reconstruction.

Key words: demography, population, regeneration, natural growth, birth, death, statistics.

Kirish.

O`zbekistonda keng ko`lamli va chuqur ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning dastlabki natijalari aholi hayoti va kundali turmushida o`zining yaqqol ifodasini topmoqda va buning natijasida el-yurtning ijtimoiy faolligi ertangi kunga ishlonchi tobora ortib bormoqda. Bunday ijtimoy faollikka ijtimoiy-mehnat munosabatlarini muttasil takomillashtirib borish mehnatni makroiqtisodiyot, tarmoq va korxonalar miqyosida oqilona tashkil qilish, ya`ni har qanday mamlakat iqtisodiyotini rivojlanтирishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo`lgan mehnat omilidan samarali foydalanish orqali erishiladi (Капиллов, 1999).

Jahon taraqqiyotida rivojlanishning asosini tashkil etuvchi inson omili yetakchi omil sifatida namoyon bo`lmoqda. Uni o`rganish natijasida esa demografiya va mehnat iqtisodiyoti ijtimoiy mehnat taqsimotining alohida yo`nalishi sifatida shakllandi va demografik jarayonlar hamda mehnat munosabatlarini o`rganish alohida yo`nalishdagi fanlar bo`lib hisoblanadi.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o`zgarishlar va iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, uning ko`lamini kengaytirish bilan bog`liq masalalarning nazariy va amaliy tomonlarini o`rganishda demografiya va mehnat iqtisodiyoti fanlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, mamlakatda aholining turmush darajasi va farovonligini oshirishga ularning ish bilan ta'minlash muammolarini muvaffaqiyatli hal etish bilan erishish mumkin.

Shunday ekan, jamiyatning barcha iqtisodiy va ijtimoiy muammolariga mehnat tushunchasi nuqtai nazaridan yondashib, bu muammolarni hal etishga demogarfiya va mehnat iqtisodiyoti sohasidagi izlanishlar orqali erishish mumkin.

Mehnat iqtisodiyotining maqsadi sifatida mamlakatimizda makro va mikro darajada mehnat jarayonlarida vujudga kelayotgan o`ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tushuntirish, ularni boshqarish va tartibga solish hamda demografik jarayonlarni tadqiq etish borasida xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish bo`yicha bilim va ko`nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Uning vazifasi esa, mehnatga oid tushuncha, ko`nikmalarni shakllantirish, korxona va tashkilotlarda mehnat munosabatlari tizimini tahlil etish, baholash va uni takomillashtirishning aniq chora va tadbirlarini ishlab chiqish, mehnat jarayonlarini tadqiq etish, demografik vaziyatga baho berish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarni ob`ektiv mazmunini mantiqiy jihatdan mushohada qilish uchun zarur bo`lgan uslubiy yondashuvlarni egallashga ko`maklashishdan iborat.

Aynan yuqorida keltirib o`tilgan omillar asosida O`zbekistonda aholini takror barpo etishning tabiiy harakatini o`rganish prognози tadqiq etiladi hamda mamlakat aholisining ijtimoiy barqaror rivojlanish omillarining iqtisodiy ko`rsatkichlari sifatida qayd etib boriladi.

Adabiyyotlar sharhi.

XIX – XX asrlarga kelib statistika, demografiya va aholi geografiyasi fanlarida aholining takror barpo bo`lishi ilmiy tushuncha sifatida keng qo`llanila boshladi. Aholi takror barpo bo`lishini tug`ilish va o`lim birligi sifatida anglash haqidagi dastlabki urinishlar XVIII asrda Ya. Eyler tomonidan taklif qilingan edi. Aholi takror barpo bo`lishi modeli amerikalik aholishunos A. Lotko tomonidan ishlab chiqildi va bu modeldan hozirga qadar statistik, demografik tadqiqotlarda foydalanib kelinmoqda. Aholi takror barpo bo`lishini o`rganishda V.I. Bortkevich, R. Beklar olib borgan tadqiqotlar ham ahamiyatlidir. R. Byok aholi takror barpo bo`lishi jarayoni intensivligini o`rganish konstruksiyasini yaratdi. XX asrning 30 yillarda R. Kuchinskiy, R. Byok g`oyalari asosida aholi takror barpo bo`lishi koeffisientlaridan foydalandi va uni keng targ`ib etdi. Kuchinskiy aholi takror barpo bo`lishida tug`ilish va o`lim jarayoni ikki yoqlama xususiyatga ega bo`lganligi va ularni ikki yoqlama yaxlit jarayon sifatida talqin etish zarurligini ko`rsatib berdi (Хорев, Чапек, 1978).

XX asrning 20-30 yillardan boshlab “aholining takror barpo bo`lishi” tushunchasi keng tarqaldi. Ushbu jarayonni matematik, demografik va statistik tahlili kengayib bordi. Rossiyada

S.A. Novoselskiy, V.V. Paevskiy, A.Ya. Boyarskiylar tomonidan aholi takror barpo bo`lishi statistikasi matematik tahlil etildi. XX asrning 50-80 yillarda aholi takror barpo bo`lishiga oid tadqiqotlar S.G. Strumilin, A.G. Rashin, B.S. Urlanis, D.I. Valentey, S.I. Pirajkov, V.S. Steshenko, G.A. Bondarskaya, V.A. Borisov, V.G. Volkov, V.A. Belovalar tomonidan o`tkazildi. V.G. Venesskiy, S.G. Kildishevlar aholi statistikasini matematik uslublar asosida o`rganish bo`yicha yirik tadqiqotlar olib bordilar (Шелестов, 1983). Ular yaratgan g`oya va metodologiyadan aholi takror barpo bo`lish parametrlarini o`rganishda keng foydalanilmoqda.

Hozirgi davrda alohida hududlar demografik jarayonlarni statistik tahliliga bag`ishlangan tadqiqotlar doirasi kengayib bormoqda. Bunday tadqiqotlarga Buryatiyada o`tkazilgan hozirgi sharoitda mintaqada aholi takror barpo bo`lishini boshqarishga bag`ishlangan tadqiqotni, Yakutiyada demografik vaziyatning statistik tahliliga oid tadqiqotlarni (Птуха, 1959) misol qilish mumkin.

Mazkur tadqiqotlarda demografik jarayonlar, hududiy xususiyatlari, ularga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni statistik tahlil etish metodologiyasi ishlab chiqilgan, demografik vaziyatdagi o`zgarishlarga statistik baho berilgan. O`zbekistonda aholi takror barpo bo`lish jarayonini alohida predmet sifatida o`rganish XX asrning 20-30 yillardan boshlandi. Aholishunos olimlar A.A. Shoroxova, E.S. Timm, A. Xamitovalar O`zbekistonning Xorazm, Toshkent viloyatlari va Farg`ona vodiysi aholisining tug`ilish, o`lim va nikoh jarayonlarini o`rganish bo`yicha tadqiqotlar o`tkazganlar (Птуха, 1959). O`zbekistonda aholi takror barpo bo`lish jarayonini o`rganish XX asrning 60-yillardan boshlab rivojlandi. Bu borada ustoz aholishunos olimlar M.K. Qoraxonov, I.R. Mullajonov, O. Otamirzaev, M. Bo`rievalar o`tkazgan tadqiqotlar ahamiyatlidir (Бўриева, 2001).

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlar aholi takror barpo bo`lish jarayonlarini tibbiy-demografik o`rganishga bag`ishlanadi. Bunday tadqiqotlarni demograflar tomonidan hozirgi davrda, ya`ni bozor munosabatlari shakllanishi davrida ham juda keng va mukammal olib borilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

O`zbekistonda demografik jarayonlarni statistik o`rganish borasida ham qator tadqiqotlar olib borilgan. O`zbekistonning demografik imkoniyatini statistik o`rganish, o`tish davri sharoitlarida iste`molchilar hayotiylik imkoniyatlarini ijtimoiydemografik omillarini yanada to`liq qamrab olgan holda, aholi talablarini moddelllashtirish va savdo hamda iste`mol mollari bozorning rivojlanishini prognoz qilishga uslubiy yondashishni hisobga olgan holda O`zbekiston iste`mol bozori shakllanishining tamoyillarini nazariy, uslubiy va amaliy ishlab chiqarishga qaratilgan bo`lib Respublikaning demografik holati va iste`mol muammolarini iqtisodiy-statistik o`rganishga bag`ishlangan ilmiy ish hisoblanadi. Aholi takror barpo bo`lishining iqtisodiy-statistik tahliliga bevosita bag`ishlangan ilmiy tadqiqotlardan biri B.B. Usmonov tomonidan o`tkazilgan tadqiqot bo`lib, unda muallif O`zbekistonda shahar aholisining soni dinamikasi, yosh-jinsiy tarkibi, aholi takror barpo bo`lishining shahar hududidagi xususiyatlarini o`rgangan; respublikaning demografik rivojlanishida, ijtimoiy-iqtisodiy omillar ahamiyatini tahlil etib, aholi takror barpo bo`lishining kelajakdagisi jarayonini aniqlagan (Бўриева, 2001).

Shuningdek, O`zbekistonda keyingi yillarda aholi takror barpo bo`lishi jarayonlarini uning hududlari bo`yicha sosiologik-demografik, geografik tadqiq etish rivojlanib bormoqda. Bunga D.N. Egamovaning O`zbekiston Respublikasi janubiy hududida “Osobennosti sosialno-demograficheskogo razvitiya semi v Kashkadarinskem viloyate v usloviyakh rnochnoy ekonomiki” deb nomlangan tadqiqoti, O.L. Abduraxmanovning “Aholi tabiiy harakatining hududiy tafovutlari (Samarqand viloyati misolida)” nomli tadqiqoti, G.A. Xodjaevaning “Geodemograficheskaya situasiya i regulirovanie razvitiya naseleniya Karakalpakstana” nomli tadqiqotlari fikrimiz dalilidir.

Shunday qilib, aholini takror barpo bo`lishi statistikasini tadqiq etish XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab to bugunga qadar qator olimlar tomonidan rivojlantirildi. Ammo qayd etish lozimki, hozirgi kunda, O`zbekistonda yangi iqtisodiy sharoitda aholini takror barpo bo`lishi jarayonlariga bag`ishlangan tadqiqotlar etarli darajada emas. Kun sayin demografik jarayonlar o`zgarib borayotgan bir sharoitda chuqur statistik tahlil qilish, ularning istiqbollarini belgilash jamiyat taraqqiyotini rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Vaholanki, bu kabi ilmiy tadqiqotlar jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotini yanada mustahkamlashning, shuningdek aholini ish bilan bandligini ta'minlash kabi dolzarb masalalarining asosini tashkil etadi.

Tahlil va natijalar va muhokamasi.

Tadqiqot natijalari sifatida statistik ma'lumotlar o'rganilganda, 2023-yilning 1-iyul holatiga respublika bo'yicha jami doimiy yashovchi aholi soni 36 372,3 ming kishini tashkil etib, 2022 yilning mos davriga nisbatan 2,2 foizga ko'paygan.

Doimiy aholi soni

36 mln 480 878

*ming
kishi*

Tabiiy o'sish

(+) 2,4

*ming
kishi*

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar



52,9%

Qishloq



47,1%

Statistikaga ko'ra, 2023 yilning yanvar-iyun oylarida respublikamizda 434 519 ta tug'ilish qayd etilgan. Statistika agentligining ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonda 2023-yil 1-yanvar holatida doimiy aholi soni 36 mln 24 ming 900 kishini tashkil etgan. Tadqiqot natijalari hududlar kesimida olib qaralsa, Samarqand viloyatida doimiy aholi eng ko'p bo'lgan va ularning soni 4 mln 118,4 ming kishidan oshgan. Aholisi eng kam bo'lgan viloyat esa Sirdaryo viloyati. U yerda 896,6 ming kishi istiqomat qiladi. Quyida boshqa hududlar bo'yicha ma'lumot keltirilgan: Farg'onaviyoti – 3 mln 976,5 ming kishi, Qashqadaryo viloyati – 3 mln 482,6 ming kishi, Andijon viloyati – 3 mln 322,8 ming kishi, Namangan viloyati – 2 mln 997,6 ming kishi, Toshkent viloyati – 2 mln 992,6 ming kishi, Toshkent shahri – 2 mln 955,7 ming kishi, Surxondaryo viloyati – 2 mln 806,7 ming kishi, Buxoro viloyati – 2 mln 009,8 ming kishi, Qoraqalpog'iston Respublikasi – 1 mln 976,3 ming kishi, Xorazm viloyati – 1 mln 958,2 ming kishi, Jizzax viloyati – 1 mln 475,6 ming kishi, Navoiy viloyati – 1 mln 55,5 ming kishi, Sirdaryo viloyati – 896,6 ming kishi tashkil qiladi.


Ma'lumot o'rnidagi, O'zbekistonda doimiy aholi soni har kuni o'rtacha 2,4 ming kishiga oshmoqda. Shuningdek, 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi doimiy aholi soni bo'yicha MDHda uchinchi, tug'ilish bo'yicha esa birinchi o'rinni egallagan. Shuningdek, aholi soni bo'yicha dunyo mamlakatlari o'rtasida 41 o'rinda qayd etilgan.

O'zbekistonda aholini takror barpo etishning tabiiy harakatini o'rganish misolida erkaklar va ayollar nisbati, aholi zinch yashayotgan hududlar, tug'ilgan o'g'il va qiz chaqaloqlar

nisbati, o'lim holatlari miqdori va ularning sabablari - O'zbekistonning 2022 yildagi asosiy demografik ko'rsatkichlarini tahlil qilamiz.

2023 yil 1 yanvar holatiga O'zbekistonning doimiy aholisi soni 36 024 900 kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni 18,1 mln, ayollar soni 17,9 mln, shahar aholisi soni 18,3 mln, qishloq aholisi soni 17,7 mln kishini tashkil etdi.

Doimiy aholining 31,7 foizi mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 56,8 foizi mehnatga layoqatli yoshdagilar va 11,5 foizi mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda (1-jadval).



**1-jadval. O'zbekistonda aholini takror barpo etishning tabiiy harakati statistikasi
(2023-yil 1-yanvar holati)³⁵**

O'zbekistonda 1 kvadrat kilometrga o'rtacha 80,2 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 1,6 kishiga ortgan. Hududlar bo'yicha aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahrida o'rtacha 6597,5 kishi, Andijon viloyatida 772,7 kishi, Farg'ona viloyatida 588,2 kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Navoiy viloyati 9,5 kishi, Qoraqalpog'iston Respublikasida 11,9 kishini tashkil etgan.

2022 yilda tirik tug'ilganlar soni 932,2 ming kishiga teng bo'lgan. Shundan o'g'il bolalar soni 482,4 ming, qiz bolalar soni 449,8 ming, tug'ilganlar soni shahar joylarida 473,4 ming kishini, qishloq joylarida 458,8 ming kishini tashkil etdi. 2022 yildagi tug'ilishlarning 97,8 foizida 1 bola, 2,1 foizida egizak, 0,1 foizida 3 yoki undan ko'proq bola dunyoga kelgan.

Tug'ilish darajasiga ko'ra O'zbekiston yaqin va uzoq qo'shnilariga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarni qayd etgan – 1000 aholiga nisbatan 26,2 koeffitsiyent. Keyingi o'rinnarda Qozog'iston (23,5), Qirg'iziston (22,4), Armaniston (12,4), Ozarboyjon (11,2), Moldova (11,2), Rossiya (9,6) va Ukraina (7,3).

2022 yilda vafot etganlar soni 172,1 ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni 95 ming, ayollar soni 77,1 ming, shahar joylarida 92 ming, qishloqjoylarida 80,1 ming (2-jadval).

³⁵ Statistika.uz



2-jadval. O'zbekistonda 2022-yil aholi o'rtasida o'lim holati qayd etilgan statistika dinamikasi³⁶

O'lim holatining 55,5 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,6 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 8,0 foizi o'simtalardan, 5,5 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,1 foizi ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 1,4 foizi yuqumli va parazitar kasalliklardan, 15,9 foizi boshqa kasalliklardan yuz bergan.

2022 yilda yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanganda 20 yoshgacha vafot etganlar 20,0 foizni, 20-59 yoshlar orasida 24,6 foizni, 60 va undan katta yoshlarda esa 55,4 foizni tashkil etgan.

So'nggi 5 yil davomida qayd etilgan vafot etganlar soni ko'rsatkichi oylar kesimida tahlil etilganda, nisbatan kam vafot etganlar soni yanvar va sentabr oylarida, eng ko'p vafot etganlar soni esa iyul-avgust oylarida qayd etilgan.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqotlar natijasida xulosa qilib shuni aytish mumkinki, aholi deganda ma'lum hududda yashovchi kishilar guruhi tushuniladi. Mazkur guruhlar zaminida jamiyat shakllanadi. Yer kurrasada insoniyat paydo bo'lganidan to hozirga qadar bir qancha davrlar o'tdi. Ana shu davrlarda inson, jamiyat o'z mavjudligini saqlash va rivojlanish uchun muntazam harakat qilib keldi. Ushbu jarayonda aholi tabiiy resurslardan foydalanib, moddiy ehtiyoji uchun zarur vositalarni yaratdi, xo'jalik tizimini barpo etdi, rivojlantirdi. Ana shunga monand yer kurrasida aholi va aholi maskanlarining soni ham ko'payib bordi.

Demak jamiyatni rivojlanishida uch asosiy omil – aholi, tabiiy resurslar va xo'jalik o'zaro bog'liq holda alohida ahamiyat kasb etadi va geografiya fanining asosiy ob'ekti hisoblanadi. Ularga shartli ravishda tabiiy (tabiiy geografiya, umumiy yer bilimi, landshaftshunoslik, paleogeografiya, geomorfologiya, iqlimshunoslik, gidrologiya, biogeografiya, tuproqshunoslik), sosial (umumiy sosial-iqtisodiy geografiya, aholi geografiyasi, rasseleniya va mehnat resurslari, siyosiy geografiya, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, xizmat ko'rsatish, madaniyat va boshqalar geografiyasi), tabiiy-sosial (ijtimoiy-ekologiya, geoekologiya, tarixiy, tibbiy, rekrasion geografiya, okeanlar geografiyasi, resursshunoslik va tabiatdan foydalanish) va geografiyaga bilvosita dahldor fanlar (kartografiya, geografiya tarixi, toponimika, metageografiya) 1 qismlarini kiritish mumkin.

Demak O'zbekistonda aholini takror barpo etishning tabiiy harakatini o'rganish aholi geografiyasi tadqiqotlari uning o'rganish ob'ektiga monand, ikki qismga bo'linadi. Ularning birinchisi dunyo va uning kontinentlari davlatlar va ularning ma'muriy hududiy birliklari

³⁶ www.statistika.uz

bo'yicha aholini o'rganish; ikkinchisi esa aholi punktlapi va ularning joylashuvi tizimining hududiy farqlarini tahlil etish hisoblanadi.

Aholini takror barpo etishning tabiiy harakatini o'rganar ekanmiz, quyidagi yo'nalishlar asosida tadqiqotlar olib borish zarur ekanligi degan xulosaga kelamiz:

1.Aholi soni dinamikasi, ijtimoiy, iqtisodiy, oilaviy va hududuiy tarkibi, takror barpo bo'lishidagi farqlar va ularning sabablarini o'rganish.

2.Aholi hududiy tarkibidagi mexnat resurslari va bu resurslardan foydalanishdagi geografik farqlarni o'rganish. Aholi bu yo'nalishda ishlab chiqaruvchi kuch sifatida qaraladi va geografiyaning xo'jalik bilan va boshqa iqtisodiy fanlar bilan o'zaro aloqagasiga tayanadi

3.Aholining hududiy taqsimlanishi va migrisiyasini o'rganish. Aholi zichligi va undagi farqlarni tahlil qilish, migratsiyasini ayniqsa, aholining qo'chib kelib joylashishini, mamlakatlar mikyosida aholi joylanishidagi o'zgarishlar, migratsiya tufayli alohida hududlardagi aholi tarkibi va sonidagi o'zgarishlarni o'rganish shular sirasiga kiradi.

4.Aholi punktlapi va ularning hududiy tizimini o'rganish. Bu yo'nalish shahar va qishloq aholi punktlapi, ularning rivojlanish va joylanish xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlanadi. Aholi punktlapi joylanishini geografik o'rganishda aholi geografiyasi va xo'jalik geografiyasi o'rtaсидаги aloqa juda mustahkam bo'lishi kerak.

5.Aholining madaniyati va turmush sharoitidagi geografik farqlar va bu farqlar sabablarini o'rganish. Mazkur bo'limda aholi geografiyasi birinchidan sosiologiya va etnografiya, ikkinchidan aholiga xizmat ko'rsatish geografiyasi, ayniksa tibbiyat bilan yaqin hamkorlik qiladi. Xalqlar geografiyasini balkim, ularning madaniyat va turmush sharoitining milliy xususiyatlari bilan birlgilikda berilsa, maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar/ Литература/ Reference:

Бўриев М. (2001) Демография асослари. – Т., 12-13-б.

Капиллов В.А. (1999) География населения. - М., - С.12.

Птуха М.В. (1959) Очерки по истории статистики в СССР. - Т./М., - С.15.

Хорев Б.С., Чапек В.Н. (1978) Проблемы изучения миграции населения. –М., - С.116

Шелестов Д.К. (1983) Демография: История и современность. - М., - С.21.